



THE ROLE OF FOLKLORE ENSEMBLES OF KASHKADARYO IN CULTURAL PROCESSES: ANALYSIS AND PROSPECTS

Boburjon Ganiyev

Lecturer at Karshi State University
Karshi, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Folklore, traditional singing, lapar, “Momogul” ethnographic folklore ensemble, Eastern songs, tours.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: This article analyzes the formation, stages of development, territorial distribution of folklore ensembles in the Kashkadarya region during the years of independence, and their role in cultural life based on scientific sources. Also, statistical data from sources on the composition of ensembles, performing traditions, years of establishment, and the activities of leaders are covered in an analytical approach. The study shows the impact of state policy on the revival and development of folk creative heritage in the region.

QASHQADARYODAGI FOLKLOR JAMOALARINING MADANIY JARAYONLARDAGI O‘RNI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Boburjon G‘aniyev

Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Folklor, anʼanaviy qoʻshiqchilik, lapar, termachilik, “Momogul” etnografik folklor jamoasi, Sharq taronalari, gastrol safarlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida folklor jamoalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, hududiy tarqalishi va ularning madaniy hayotdagi o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ansamblarning tarkibi, ijrochilik anʼanalari, tashkil topgan yillari va rahbarlar faoliyati bo‘yicha manbalardan olingan statistik ma‘lumotlar tahliliy yondashuvda yoritilgan. Tadqiqot viloyatda xalq ijodiy merosining tiklanishi va rivojlanishiga davlat siyosatining

РОЛЬ ФОЛЬКЛОРНЫХ КОЛЛЕКТИВОВ КАШКАДАРЬИ В КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Бобурджон Ганиев

Преподаватель

Кариинского государственного университета

Кариин, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фольклор, традиционное песенное искусство, лапар, терма, этнографический фольклорный коллектив «Момогул», «Шарк тароналари», гастрольные поездки.

Аннотация: В данной статье на основе научных источников анализируются процессы формирования фольклорных коллективов в Кашкадарьинской области в годы независимости, этапы их развития, территориальное распространение и роль в культурной жизни региона. Также в аналитическом ключе рассматриваются статистические данные из источников, касающиеся состава ансамблей, исполнительских традиций, годов основания и деятельности их руководителей. Исследование показывает влияние государственной политики на возрождение и развитие народного творческого наследия в области.

Kirish. O'zbekiston xalqining boy madaniy merosi xalq og'zaki ijodi, qadimiy an'analari va milliy qadriyatlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning uzluksiz davom etishi va saqlanib kelinayotganligida folklor jamolarining o'zni beqiyosdir. Bugungi globallashuv davrida yurtimizda madaniy-ma'rifiy hayotni boyitish, an'anaviy san'at turlarini asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish borasida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Qashqadaryo viloyati o'zining boy etnografik tarkibi, qadimiy urf-odatlar, marosimlari xalq qo'shiqlari va o'ziga xos raqs an'analari bilan ajralib turadi. Shu sababdan ham Qashqadaryo folklor jamoalarining madaniy jarayonlardagi o'rnini o'rganish, ularning faoliyatini tizimli tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb masalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. 2011-yil 23-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib etishni rivojlantirishga

oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi[1]. Mazkur qarorlar nomoddiy madaniy meros sohasida olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu qonun hujjatlarida folklor jamoalari faoliyatini hududlar miqyosida kengaytirish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur tashkiliy va moddiy sharoitlar yaratish, shuningdek, xalq og'zaki ijodiga oid namunalarni tizimli ravishda yig'ish, tasniflash va ilmiy muomalaga kiritish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Ayniqsa, folklor jamoalarining faoliyatini modernizatsiya qilish, milliy an'ana va marosimlarning asl holatini saqlagan holda qayd etish, hududlarda mavjud og'zaki ijod namunalarining elektron bazasini shakllantirish hamda ularning ilmiy-nazariy tahlilini kengaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Qashqadaryo – qadimiy madaniyat markazlaridan biri bo'lib, bu hududning folklor merosi qadimdan boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular orasida marosim, beshik qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, xalq epik ertak-dostonlari, shuningdek, chanqobuzdagi o'ziga xos cholg'u musiqasi, dumbra kuylari, sibizg'i va zarbli cholg'u asboblarining o'ziga xos raqs ritmlari bor.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan viloyatda "Qashqadaryo nafaslari", "Kitob sadosi", "Shahrisabz navolari" kabi folklor jamoalari faoliyat ko'rsatdi[2]. An'anaviy xalq qo'shiqlarini tiklash va ijro etish, qadimiy marosim qo'shiqlari, lapar va termalarni sahna talqiniga moslashtirish, xalq raqslari, baxshichilik an'analari, maqom va doston ijrochiligini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida folklorga qiziqishni oshirish maqsadida to'garaklar ochish, folklor jamoalarining asosiy vazifalari qilib belgilandi. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Kitob, Qarshi va Kasbi tumani hududlarida folklor jamolarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi[3]. Hudud bo'ylab folklor namunalarini to'plash jarayonlari keng tus oldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi folklorshunos olimlar tomonidan ekspeditsiyalar tashkil etilib, yuzlab folklor namunalarining audio va video yozuvlari yaratildi. Xalq orasidagi mashhur qo'shiqlar va laparlar shuningdek dostonlarni yozib olish jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur holat ko'plab xalq orasidagi folklor qo'shiqlarining to'planishiga sabab bo'ldi. 2000-yilga kelib, Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlari miqyosida faoliyat yuritayotgan folklor yo'nalishdagi ansambillar soni 15 tani tashkil etdi. Keyingi yillarda ular son jihatidan yanada ko'payib bordi. Viloyatning deyarli barcha shahar va tumanlarida folklor jamolari tashkil etildi. Jumladan, Qarshi shahridagi "Gulchehralar", "Arab gullari", Shahrisabz tumanidagi "Beshqarsak", "Tong guli", Kitob tumanidagi "Sabogul", "Navro'z", Qamashi tumanidagi "Mahallada duv-duv gap", "Mingbarg", "Egachim", "Bo'yрачи", Koson tumanidagi "Farzona", "Shodiyona", "Omon yor", "Bo'ston", Mirishkor tumanidagi "Hilol", "Al-arabiya", Chiroqchi tumanidagi "Chiroqchi chiroqlari", "Xalq", "Ikroma", G'uzor tumanidagi "Gulruh", "Nigina duxtar", "Eskibog'", Nishon

tumanidagi “Cho‘lobod”, “Nurafshon”, Qarshi tumanidagi “Momogul”, “Xalq”, “Hilola”, “Chamanda” jamoalari, Yakkabog‘ tumanidagi “Nozirgul”, Muborak tumanidagi “Zanjirsaroy”, Kasbi tumanidagi “Begin”, “Navro‘zoy”, Dehqonobod tumanidagi “Qo‘ng‘irot”, “Alpomish”, Pomiq shaharchasidagi “Do‘stlik rishtalari”, “Sarvinoz” jamoalari faoliyat ko‘rsatdi. Folklor jamolari tarkibida 10-25 nafarga ishtirokchilar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, ayrim jamolardagilarning soni 30 nafardan ortiqni tashkil etdi[4]. Jumladan, Qarshi tumanidagi “Momogul” ansambli tarkibidagi ishtirokchilar soni 30 nafardan iborat bo‘ldi. Ular tomonidan turli xildagi marosim qo‘shiqlari, laparlar, baxshichilik chiqishlari va sahna ko‘rinishlarini to‘liq ijro etish amalga oshirildi. Shuningdek, ansambllar tarkibida, qo‘shiqchilar, raqqosalar bilan birga cholg‘uchilar, baxshilar, sahna bezakchilari ham faoliyat ko‘rsatdi. Bu esa jamoalarning to‘laqonli folklor teatr ko‘rinishida shakllanganligini ko‘rsatadi. Mazkur jamolar respublika, viloyat miqyosida tashkil etilayotgan turli xildagi tadbirlarda, respublika tanlovlarida, festivallarda ishtirok etishi ta‘minlandi. Jumladan, “Boysun bahori”, “Qashqadaryo bahori”, “Sharq taronalari” kabi festivallardagi ishtirokini aytib o‘tish joizdir.

2005-yil Toshkent shahrida lapar, o‘lan qo‘shiqlari ijrochilarining birinchi respublika festivali bo‘lib o‘tdi[5]. Unda “Eng umidli ijrochi” nominatsiyasi bo‘yicha Qashqadaryo viloyatidan ishtirok etgan K. Berdiyev va M. Boboyevalar Xalqaro oltin meros jamg‘armasining maxsus sovriniga sazovor bo‘ldi. “Eng keksa ijrochi” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olibga aylangan Qashqadaryo vakili Umida Tog‘ayevaga Oqsoqollar kengashi va Mahalla xayriya jamg‘armasi maxsus sovrini topshirildi. Lapar ijrochiligi bo‘yicha yesa Qashqadaryo laparchilar guruhi faxrli uchinchi o‘rinni egalladi[5]. Chiroqchi tumanida faoliyat ko‘rsatgan “Chiroqchi chiroqlari” folklor-etnografik ansambli tumanning o‘ziga xos xalq qo‘shiqlarini, milliy an‘analarini o‘rganib, ularga qayta sayqal berdi. Ushbu ansambil dastlab "Ufori" deb nomlangan (haqiqiy ismi 1994 yildan berilgan). "Ufori" erkaklar xalq raqsi (ufar-qo‘shiq va raqs janri), shuningdek maqom badiiy bo‘limlarining yakuniy vokal asarlari o‘sha davr tomoshabinlari orasida alohida shuhrat qozondi. Ansambl tashkilotchisi Mahkamtosh Qayumov edi. U xalq qo‘shiqlari va raqslarini yaxshi ko‘radigan va mahalliy folklor bilan yaxshi tanish bo‘lgan 40 dan ortiq erkaklar va keksa ayollardan iborat jamoani shakllantirdi. Ansambl “Marhabo talantlari -1995”, “Chashma-94”, “Boysun bahori”, “Asrlar Sadosi” kabi tanlov va festivallarda, Amir Temur, Al-Farg‘oniy kabi tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan yubiley tadbirlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi[6]. Ansambl repertuaridagi “Oy kelinim”, “Qalqamaning qirlari”, “Omongul”, “Urchug‘im”, “Oyimcha”, “Qoqindiqman”, “Gulli kigiz”, “Do‘mbiram” kabi xalq qo‘shiqlari bilan tadbirlarning ishtirokchisi bo‘ldi. Jamoa ijrochisi X.Murodovanning odamlar og‘zidan yozib olgan qo‘shiqlari, o‘lan, laparlari asosida “Moziy javohirlari” deb nomlangan to‘plam nashr etildi.

Mazkur to'plam milliy musiqiy merosning nozik jihatlarini qayd etishi, xalq og'zaki ijodi namunalarini yozma shaklda mustahkamlab, keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiluvchi muhim adabiy-musiqiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning samarali mehnatlari qadrlanib, davlatimiz tomonidan 2015-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi[7].

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan folklor san'atini keng ommaga tanitish va uning boy an'anaviy qirralarini hujjatlashtirish maqsadida milliy ruhdagi hujjatli filmni suratga olish ishlari amalga oshirildi. Suratga olish jarayonlarida tuman madaniyat markazi jamoasi hamda 15-son bolalar musiqa va san'at maktabi qoshida faoliyat yuritayotgan "Toshqin buloq", "Dutorchi qizlar", "Xalq cholg'ulari" kabi folklor ansambllari qatnashdi[8]. Shuningdek, mazkur filmda xalq og'zaki ijodi namoyandalaridan biri - mashhur baxshi Sanjar Chubayev, shuningdek tasviriy san'at bo'limi o'qituvchi va o'quvchilari ham faol ishtirok etdilar. Hujjatli filmda tuman aholisining milliy urf-odatlarini, an'anaviy marosimlari, tarixiy xotira va boqiy qadriyatlarini keng qamrovda namoyon etildi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini va ahamiyati ham batafsil yoritib berildi. Mazkur film Chiroqchining boy madaniy merosini hujjatli tarzda qayd etish, folklor an'analari kelajak avlodga yetkazishda muhim manba vazifasini o'tadi.

Muborak tumanida faoliyat yuritgan "Zanjirsaroy" folklor-etnografik ansambli o'zining an'anaviy folklor merosini ijodiy tarzda saqlab, zamonaviy sahna talqiniga mos ravishda yetkazishdagi yondashuvi bilan keng jamoatchilik e'tiborini qozondi. Ansambl repertuari o'zbek xalq musiqiy merosining asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lib, unda an'anaviy va zamonaviy xalq qo'shiqlari, raqslari hamda marosim folklorining turli janrlari o'rin oldi. Jumladan, "Sog'inch", "Sovchilik", "Qashqadaryo eli" kabi qo'shiqlar ansambl ijodida muhim o'rin tutdi[9]. Shu bilan birga, ansambl repertuarida lapar, qoshiq va terma qo'shiq kabi xalq og'zaki musiqa janrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrlarning sahna talqini orqali ansambl mahalliy folklor an'analari nafaqat qayta tikladi, balki ularni zamonaviy ijro madaniyati bilan uyg'unlashtirishga ham hissa qo'shdi. Ansambl folklor merosini saqlash va ommalashtirishdagi muvaffaqiyatli faoliyati tufayli 2007-yilda rasman "Xalq folklor ansambli" unvoni bilan taqdirlandi[10].

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan folklor jamoalari hududning milliy madaniy merosini saqlash, tiklash va zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga mos sharoitda rivojlantirishda muhim o'rin tutdi. Folklor jamoalari ijtimoiy hayotda ham faol rol o'ynab, milliy qadriyatlarni saqlash, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani kuchaytirish hamda turizm salohiyatini oshirishga ham xizmat qildi. Umuman olganda, Qashqadaryodagi folklor jamoalari hududning madaniy manzarasini boyitish, milliy merosni saqlash va uning uzluksizligini ta'minlashda

muhim ijtimoiy-madaniy missiyani bajarib kelmoqda. Ular folklorning zamonaviy madaniyatdagi oʻrni va ahamiyatini yanada chuqur anglatishga xizmat qilib, istiqbolda mahalliy va milliy darajadagi madaniy jarayonlarning barqaror rivojiga salmoqli hissa qoʻshishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va targʻib etishni rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2023-yil 25-dekabr PQ-405-son.
2. Qashqadaryo viloyati madaniyat boshqarmasi hisobotlari (1995–2020).
3. Oʻzbekiston MDA, M-38 fond, 1-roʻyxat, 194-yigʻma jild, 81-varaq
4. Oʻzbekiston MDA, M-38 fond, 1-roʻyxat, 175-yigʻma jild, 23-varaq
5. Sarimsoqov B. “Oʻzbek folklorining janrlar sostavi. Oʻzbek folklori ocherklari”, 3 tomlik, 1-tom. “Fan”, - Toshkent: 1998.
6. Mirzayev T., Turdimov Sh., Joʻrayev M va boshq “Oʻzbek folklori”. Darslik. Toshkent-2017
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi folklor jamoalari hisobotlari (1991-2023)
8. Sunnatillayev A. Folklor-etnografik jamoalari repertuarida toʻy marosim qoʻshiqlaridan foydalanish masalalari. “Oʻzbek xalq musiqa sanʼati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Byxopo 2023. – B. 47-53.
9. Mirzayev, T., Karimova G.. Qashqadaryo folklori: toʻplam va tadqiqotlar. – Qarshi: Nasaf, 2016.
10. Tuychiev N. “Qashqadaryo viloyatida folklor jamoalari faoliyati va uning ijtimoiy ahamiyati”. //Oʻzbekistonda madaniyat va sanʼat, 2019. -B 24.